tayyorgarlik darajasidagi individual ehtiyojlariga moslashishini ta‘minlash orqali talaba taraqqiyotiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatuvchi ijobjiy sharoitlar yaratiladi, ya’ni umumiy pedagogikadan tashkil etiladigan (mexanika bo‘limi misolida) mustaqil ta’limni loyihalash algoritmi (2-rasm), o‘rta modullari va o‘quv soatlarining umumiy soni (1-jadval) hamda mustaqil ta’lim mayeriallarini (mexanika bo‘limi mi-solida) modullarga ajratib o’qitishni ko‘rib chiqamiz.

\  
2-rasm

Mustaqil ta’lim jarayonni loyihalash algoritmi

	Loyiha tuzish bosqichlari va bajariladigan amallar
	Umumiy pedagogikadan mustaqil ta’limni bir butunlik deb qarab, mazmun va hajmi jihatidan katta va o‘rta modullarga ajratamiz hamda katta modullar maqsadlarini belgilaymiz.
	Katta modul tarkibidagi o‘rta modullarning mavzulari va maqsadlarini belgilaymiz.
	Maqsadlar yakunida paydo bo‘ladigan ko‘nikmalarning fe’llar shaklidagi majmuasini tuzib chiqamiz.
	O‘rta modul tarkibidagi kichik modullarning maqsadlarini aniqlaymiz va ularga ajratilgan vaqtini belgilaymiz.
	Modullardagi tayanch tushunchalar va nazorat savollarini aniqlaymiz.
	Baholash mezonlarini belgilaymiz.
	O‘rta modulda qo’llaniladigan mashg’ulot turi, tipi hamda qo’llaniladigan pedagogik usul va uslublarni aniqlab, ishlatajigan joylarini belgilaymiz.

	<p>Mustaqil ta'lif jarayonida foydalilanidigan axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar va boshqa didaktik materiallar zaxirasi ichidan, muayyan modulda foydalani-ladiganlarini topib, qo'llanish joylarini aniqlaymiz.</p>
	<p>O'rta modul mazmuni va mustaqil ta'lif jarayonining kechishini ifoda etuvchi modul matnnini yozamiz.</p>

Quyida mustaqil ta'lif o'quv materiallarini modullarga ajratib o'qitish texnologiyasiga oid materiallarni namuna sifatida keltiramiz. Bunda maqsadlar yakunida ishlataladigan fe'llar tizimi; mustaqil va labo-ratoriya ishlari bo'yicha umumiy pedagogikadan mustaqil ta'lifning modullari, ulardan ko'zlangan maqsadlari va tarkibidagi modullar soni; ularga ajratilgan vaqt; modullar ichidagi tayanch tushunchalar va ular asosida tuzilgan nazorat savollari, testlar; modullarning dars turi va tipi hamda unda qo'llaniladigan pedagogik usul va uslublar; axborot vositalar hamda didaktik materiallarning qo'llanish joylari; modulning mazmuni va mustaqil o'quv jarayonining amalga oshishini ifoda etuvchi matnlari; modullar bo'yicha talaba maqsadlari hamda o'quv topshiriqlari; mavzuning nazariy va amaliy mashg'ulot tushunchalariga oid Venn diagrammasi varianti; mexanikaga oid T-sxe-ma; mashg'ulot uchun ekspert varagi; gorizontal otilgan jismning harakatini o'rganishga doir mashg'ulotni olib borish texnologiyasi; mashg'ulotning texnologik xaritasi; mavzuni jonlantirish uchun savollar; mashg'ulot mavzusi bo'yicha tayanch ibora va tushunchalar; mashg'ulot

- C) Pedagogika tarixi fani ijtimoiy fan.
  - D) Pedagogikaga oid bilimlarni o'rganadigan fan.
35. Pedagogika tarixining asosiy manbalari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- A) Xalq og'zaki ijodi, pedagogik qadriyatlar, tarixiy manbalari, ta'lif-tarbiyaga oid asarlar, davlat qonun va qarorlari.
  - B) Davlat hujjatlari, tarixiy g'oyalari, pedagogik meros.
  - C) Milliy meros va umumiy qadriyatlar.
  - D) Buyuk pedagoglar asarlari, xalq pedagogik adabiyotlari.
36. Sharq Uyg'onish davrining yetuk namoyandalari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
- A) Al-Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino.
  - B) Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy.
  - C) Abu Rayhon Beruniy, Amir Tcmur.
  - D) Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy.
37. «Turkiy G uliston yoxud axloq» asarining muallifi kim?
- A) A. Avloniy.
  - B) Munavvarqori.
  - C) Fitrat.
  - D) Behbudiy.
38. «Qutadg'u bilig» asarining muallifi kim?
- A) Kaykovus.
  - B) Navoiy.
  - C) Abu Nasr Forobi.
  - D) Yusuf Xos Hojib.
39. Navoiy umrining oxirgi yillarda yozgan ta'lif-tarbiyaga oid asari nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- A) «Hayrat fil-abror».
  - B) «Mahbub ul—qulub».
  - C) «Xamsa».
  - D) «Farhod va Shirin».

30. «Isrof — o'rinsiz va foydasiz ishlarga pul va mol sarf qilishdir. Isrof natijasida yo'qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga tama va hasad qilish kelib chiqadi».

Ushbu pandning muallifi kim?

- A) Davoniy.
- B) Abdurahmon Jomiy.
- C) Alisher Navoiy.
- D) Abdulla Avloniy.

31. “Ul nadurkim, poyi yuq, yursa boshi birla yurar, yurganda xok surmay ancha ustolik qilar”. Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

- A) Anbar otin.
- B) Jahon otin.
- C) Dilshod otin.
- D) Samar otin.

32. Turkiston o'lkasi chor hukumati tomonidan bosib olinganidan so'ng yerli aholini savodxon qilishdan asosiy maqsad qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) Umumiy savodxonlikka erishish.
- B) Yerli aholini ruslashtirish.
- C) Yerli aholi uchun milliy maktablar tashkil etish.
- D) Yangi usul maktablari ochish.

33. Ulug'bekning buyrug'i bilan qaysi shaharlarda madrasalar barpo etilgan?

- A) Samarqand va Shahrисabzda.
- B) Samarqand va Qarshida.
- C) Samarqand va G'ijduvonda.
- D) Samarqand va Buxoroda.

34. Pedagogika tarixi qanday fan?

A) Pedagogik a tarixi metodikasi voqeа va hodisalarni o'rgatadigan fan.

B) Pedagogika tarixi mакtab tizimi va g'oyalарини o'рганадиган fan.

mavzusini mustahkamlash uchun topshiriqlar; talabalar bilimini va guruh natijalarini baholash mezonlari o'z aksini topgan.

Maqsadlar yakunida ishlataladigan fe'llar tizimi

	Fe'llar		Fe'llar		Fe'llar
1	Asoslamоq	1	O'zgartirmоq	1	Eslab qolmoq
2	Isbotlamоq	2	Tasniflab chiqmoq	2	Munosabat bildirmоq
3	Aniqlamoq	3	Gurhlashtirmоq	3	Baholamoq
4	Tartiblamоq	4	Tavsiflamоq	4	Hisoblamоq
5	Egallamoq	5	Tizimlashtirmоq	5	Nazorat qilmoq
6	Aytib bermoq	6	Taqqoslamоq	6	Mezonga solishtirmоq
7	Ko'rsatib bermoq	7	Mavjud bo'lmoq	7	Esga tushirmоq
8	Namoyish qilmoq	8	Izohlamоq	8	Takrorlamоq
9	Bo'lib chiqmoq	9	Qayta ishlamoq	9	Tanlamоq
0	Belgilamoq	0	Foydalанmoq	0	Axbорот bermoq

**FSMU**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv seminarlar yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgandan so'ng qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda ta'lif oluvchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga ham tinglovchilarni bahslashish

**F**- Fikringizni bayon eting,

**S**- Fikringiz bayoniga biror-bir sabab ko'rsating

**M** – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring,

**U** – Fikringizni umumlashtiring.

**«Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka»)**

Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy

ifodalovchi tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar yig'indisi nima deb ataladi?

- A) Pedagogika.
  - B) Tarbiya nazariyasi.
  - C) Didaktika.
  - D) Xalq pedagogikasi
27. «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya bo'lib, keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbiri bo'lganidan, so'zni badantarbiyadan boshlaymiz. Badantarbiyaga odamning ish jayronida qiladigan harakatlari va maxsus badantarbiya harakatlari kiradi. Bu yerda biz keyingisi ustida to'xtalamiz, chunki shu keyingisi badantarbiya bo'lib, undan keladigan manfaatlar tufayli u bilan mashg'ul bo'ladilar. Badantarbiyaning turlariga kelsak, ular quyidagilardan iborat: tez harakatli, nozik va yengil, kuchli badantarbiya turlari».

Mazkur fikr muallifi kim?

- A) Beruniy.
  - B) Ibn Sino.
  - C) Davoniy.
  - D) Navoiy.
28. Movarounnahrda qaysi davlat arbobi XV asrda maktabalar islohotini o'tkazdi?
- A) Amir Temur.
  - B) Mirzo Ulug'bek.
  - C) Zahiriddin Bobur.
  - D) Alisher Navoiy.
29. As-sahih» to'plami qaysi muhaddis-vatandoshimiz ijodiga mansub?
- A) Imom Ismoil al-Buxoriy.
  - B) Imom Ismoil al—Nishopuriy.
  - C) Imom ibn Mojja.
  - D) Imom ibn Iso at-Termizi.

D) Aralaslı darslar, yangi materiallarni bayon etish, takrorlash, bilimlarni tekshirish va baholash, mustahkamlash darsi.

23. Ibtidoiy jamoa davrlarida tarbiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘igan shart-sharoitlar nimalardan iborat?

A) Kohinlar va oqsoqollarning maqsadga nauvofiq faoliyati.

B) Bolalarning kattalarga taqlidi.

C) Ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati va bunda tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar.

D) Kishilarning o‘z nasl-nasabini davom ettirishda tabiiy-biologik negizga asoslanishi.

24. «Bola o‘zining hayot faoliyati jarayonida kattalarning ishlariga qatnashib, ular bilan kundalik muomalada bo‘lib tarbiyalanar va ta’lim olar edi. Keyinroq odat bo‘lib qolganidek, hayotga hozirlanibgina qolmasdan, shu bilan birga, o‘zi uddalay oladigan faoliyatga bevosita qo‘silib ham ketaveradi, kattalar bilan birga va ularning rahbarligida mehnat qilishga va hayot kechirishga o‘rganar edi». Mazkur fikr qaysi tarixiy davrdagi bola tarbiyasini yorityapti?

A) Quldarlik jamiyatidagi.

B) Ibtidoiy jamiyatdagi.

C) Feodal jamiyatdagi.

D) Ibtidoiy jamoaning yemirilish davridagi.

25. Eng qadimgi davrlardagi ma’naviy madaniyatimiz, xususan, bolalar tarbiysi tizimini o‘rganishga asos bo‘lgan manbani ko‘rsating.

A) Quro’ni Karim.

B) Ibn Sino. «Axloq haqida risola».

C) Ma’rifatparvarlarning asarlari.

D) «Avesto».

26. Xalq ommasi tomonidan yaratilgan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish bobida qo‘llanib kelangan usul, vosita, ko‘nikma va malakalar birligini

vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

«Fikriy hujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qilash, har qanday luqma va hazil mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad tahsil oluvchilarining mashg‘ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘laming kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

«Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog‘ida tahsil oluvchilarining soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg‘ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

### «Ikki qisqli kundalik»

Bu matnning mazmunini o‘rganishga, uni o‘zining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashga va o‘qiganining mazmuniga o‘z munosabatini yozma ifoda etishga imkon beruvchi oddiy hamda samarali usuldir. Kundalik bilan quyidagicha ishslash mumkin: a) Daftar varag‘i vertikal chiziq bo‘yicha ikkiga bo‘linadi. b) Chap tomonga ta’lim oluvchi unda taassurot uyg‘otgan, yoqqan yoki savol tug‘dirgan, ba’zi fikr keltirib chiqqagan, muallifning sitata yoki fikrlarini yozadi (masalan, juda aqlli ta’rif, yoki xato tuyulishi, yoki

ma'lumotning bir qismi dalil yoki sabab va boshqalar). v) O'ng tomonda mualifning sitatasi yoki fikriga o'zining sharhlarini yozadi, ya'ni o'qilganga o'z fikrini bildiradi: bu sitatada aynan nima uni yozib olishga undadi? Bu sitata uni nima haqda o'ylashga majbur etdi? Bu sitata bo'yicha u qanday savollarni o'yladi? g) Matnni o'qiyotganida u to'xtab, kundalikka yozib boradi. d) Ishni yakunlagandan so'ng ular juftliklarda ishlashlari, ishlari bilan almashishlari, o'rtoqlari ishida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko'rsatishlari mumkin.

**«Venn diagrammasi» - (ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan)** grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar ,asoslar,tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspect orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy farqlovchi jihatlarini aniqlash,taqqoslash imkonini beradi .

Bunda ta'lim oluvchida mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Usul kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rtta bo'lak-ka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Bu usul ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Bundan muayyan bilim yoki boblar bo'yicha yakuniy

18. Ta'lim jarayoni — bu:
  - A) Maxsus tashkil etilgan jarayon, buning natijasida o'quvcliilar olam haqidagi bilimlarni egallaydilar.
  - B) O'quvchilar tomonidan ularni qurshab olgan dunyoning qonuniyatlarini o'rganishi.
  - C) Bilish faoliyati.
  - D) Aqliy bilish faoliyati.
19. Shaxs — bu:
  - A) Ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.
  - H) Ta'lim tizimining faoliyatini tartibga soluvchi.
  - C) Har qanday odam shaxs hisoblanadi.
  - D) Yangi tug'ilgan chaqaloq.
20. Shaxsnинг shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar qaysi qatorda to'liq berilgan?
  - A) Mikromuhit, iste'dod, xotira.
  - B) Mikromuhit, mezomuhit, makromuhit, irsiyat, ta'lim-tarbiya, shaxsiy faoliyat.
  - C) Shaxsiy faoliyat, mafkura.
  - D) Irsiyat, iste'dod, xotira.
21. Nazariya — bu:
  - A) Bilimlarning haqqoniy ekanligi.
  - B) Harakatlar yig'indisi.
  - C) Fikrlar tizimi.
  - D) O'qituvchi va o'quvcililarning xususiyatlarini o'rganishdir.
22. Dars tiplari qaysi qatorda to'liq ko'rsatilgan?
  - A) Aralash darslar, yangi bilimlarni bayon etuvchi va leksiya darslari.
  - B) O'tilgan materiallarni mustahkamlash, umumlashtirish darslari.
  - C) O'yin darslari, press-konferensiya, niohir qo'llar darsi.

13. O'rta Osiyo mutafakkirlaridan qaysi alloma birinchi marta bolalarni jamoa bo'ib maktabda o'qitishning ahamiyatini ilmiy asoslab bergen? O

- A) Al - Forobiy.
- B) Al - Beruniy.
- C) Al - Xorazmiy.
- D) Ibn Sino.

14. «Juvonmardlikning asli 3 narsadir: biri ulkim, aytgan so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulkim, xayrli ishni ilgari tutsang, qilgan barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadur». Ushbu fikrning muallifi kim?

- A) Kaykovus.
- B) Yusuf Xos Hojib.
- C) Ahmad Yugnakiy.
- D) Koshifiy.

15. "Turkiy tilda yaratilgan dastlabki ta'limiylar axloqiy asar qaysi?

- A) «Devon-u lug'otit-turk».
- 13) «Qutadg'u bilig».
- C) «Hibat ul-haqoyiq».
- D) «Mahbub ul - qulub»

16. Didaktika - bu:

- A) Ta'lim nazariyasi.
- B) O'quv tillarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish.
- C) Ta'lim qonuniyatlarini, tamoyillari va mohiyatini tadqiq etadi.
- D) Ilmiy fan bo'lib, ta'larning nazariy asoslarini o'rgatadi.

17. «Buyuk didaktika» asari qaysi pedagog-olim tomonidan yozilgan?

- A) Abu Rayhon Beruniy.
- B) Abu Ali ibn Sino.
- C) Yan Komenskiy.
- D) Pestalotssi.

darsslarni tashkil etishda foydalanish samaraliroqdir. Usul quyidagicha amalga oshiriladi:

- ta'lim oluvchilar to'rt guruhga bo'linadi;
- yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
- topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan yetakchilar tanla-nadi;
- yetakchilar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umum-lashtiradi;
- yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradilar

#### «Konseptual jadval»

Bu bir qancha faraz, qonun yoki hodisa, dalillar va boshqalarni solishtirish kerak bo'lganda qo'llanadigan grafik tashkilotchidir. Konseptual jadvalda tahliliy axborotning katta hajmi ixcham joylashtirilgan. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotiga (slayd, o'quv plakati va h.k.) qo'l keladi. Muayyan muammo bo'yicha konseptual jadvalarni tuzishga topshiriqni kichik guruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va uni butun guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantni ishlab chiqish – amaliy mashg'ulotlarning “anglash” va “fikrlash” fazasida aniq bir mavzu bo'yicha mashg'ulot mazmuni bo'lib xizmat qilishi mumkin. o'tkazish texnologiyasi quyidagicha:

- 1) Yangi axborot bilan ishlash (tanishish).
- 2) Jadval tuzish. Konseptual jadvalda vertikal bo'yicha solish-tiriladigan, gorizontal bo'yicha esa – solishtirish amalga oshiriladigan turli tavsiflar joylashtiriladi.
- 3) Jadvalni to'ldirish. Ta'lim oluvchilar solishtirish mezonlarini ifoda etadilar va axborotni mos kelgan mezonlar bo'yicha taqsimlaydilar.
- «Sinkveyn»**
- O'r ganilayotgan materialni puxta anglash uchun qo'llaniladigan interfaol usullardan biri hisoblanadi. Sinkveyn-fransuzcha besh qatorli o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'r ganilayotgan tushuncha to'g'risidagi axborot yoyilgan holda o'quv so'zi bilan, turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. "Sinkveyn" tayanch tushunchalar va ahborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor vosita hisoblanadi.
- Sinkveyn tuzish qoidasi: -birinchi qatorda mavzu bir so'z, odatta ot bilan ifodalanadi? (Kim? Nima?);  
 -ikkinchi qatorga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi. (Qanday? Qanaqa?)  
 -uchinchi qatorda mavzu doirasidagi hatti – harakat uchta so'z (fe'l) bilan ifodalanadi;  
 -to'rtinchi qatorga mavzuga nisbatan tasavvur anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi;
- C) Maxsus tashkil etilgan va ongli amalga oshiriladigan jarayon.  
 D) Insonlar bir-biriga tavsif etadigan jarayon.  
 10. Tarbiyaning qismlari qaysi qatorda to'liq ko'rsatilgan?  
 A) Politexnik, ma'naviy, axloqiy.  
 B) Ekologik, axloqiy, nafosat, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, mehnat.  
 C) Jismoniy, iqtisodiy, huquqiy.  
 D) Axloqiy, ekologik, nafosat.  
 11. Ma'lumot — bu:  
 A) Maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda o'quvchilar bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalarni egallab, ilmiy dunyoqarashi shakllanib borishi bilan birga, axloqiy fazilatlarning kamol topishi.  
 B) O'quv ko'nikmasi va malakasi bilan qurollantirish orqali tarbiyaviy ta'sir o'tkazish.  
 C) Tarbiyaning bir qismi bo'lib, bunda bolalar bilimlar tizimini egallab boradilar.  
 D) O'quvchilar tomonidan ko'nikma va malakalarini o'zlash-tirish jarayoni.  
 12. «Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasidagi nazariy fazilatlarni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish demakdir. Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb - hunarni o'rganishdir».
- Bu ta'rifning muallifi kim?
- A) Al - Forobiy.  
 B) Al - Xorazmiy.  
 C) Al - Beruniy.  
 D) Ibn Sino.

5. O'quv materiallarini o'zlashtirishning asosiy bosqichlari ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A) Diqqat bilan tinglash, topshiriqlarni bajarib borish.

B) O'qishga, bilimga qiziqish.

C) Bilimlarni qabul qilish, tushunish, idrok etish va amalga tatbiq etish.

D) Qunt bilan o'rganish.

6. Ta'larning ikkiyoqlama jarayoni qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati.

B) Ta'linda o'qituvchining otaliq roli.

C) O'qituvchilarning ilmiy bilimlar berishi, ko'nikma va malakalar bilan quollantirishi.

D) O'qituvchining tushuntirganlarini o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi.

7.Qaysi olim "Insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi" deb aytgan?

A) Abu Rayhon Beruniy.

13) Yan Amos Komenskiy.

C) Abu Ali ibn Sino.

D) Burhoniddin Zarnudjiy.

8. Ta'larning maqsadi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan quollantirish.

8) Aniq mavzuni o'quvchilarga bildirish.

C) Yoshlarni bilimlar bilan quollantirish.

D) Yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish.

9. Tarbiya — bu:

A) Maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon bo'lib, bu jarayon insonni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan bo'ladi.

B) Axloqiy e'tiqod va xatti-harakatlarni shakllantirish jarayoni.

-oxirgi qatorga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga o'xhash bo'lgan bitta so'z (sinonim) yoziladi.

Sinkveyn tuzish-murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni puxtarq anglashga yordam berish bilan birga, ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini yuqori darajada rivojlantiradi.

### «Muammoli vaziyat»

Bu pedagogik usul, ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

"Muammoli vaziyat" usuli uchun o'quv dasturidan tanlangan mavzu va uni ichidagi muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos ravishda tanlanishi lozim. Talabalar qo'yilgan muammo yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks xolda yechimini topa olmay, ta'lim oluvchilarning muammoga bo'lgan qiziqishlari so'nishiga va o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bu usul qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga va uning yechimini topishga o'rganadilar.

### **"Muammoli vaziyat" usulining bosqichlari:**

1.O‘quv jarayoniga tayyorgarlik qilish davrida pedagog o‘quv dasturidagi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarini aniqlaydi.

2.Pedagog ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

3.Pedagog ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

4.Guruhanlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar, bu muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh o‘zi aniqlagan sabablarni taqdimot qiladilar.

5.Barcha taqdimotlarning ichidan bir xil fikrlilari guruhlashtiriladi.

6.Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qilib, ularni tahlil qiladilar va muammoni yechishning eng maqbul yo‘lini aniqlaydilar.

### **«Elpig‘ich»**

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

### **UMUMIY PEDAGOGIKA FANIDAN TALABALAR UCHUN TEST SAVOLLARI**

1. Xalq ta’limi tashkilotlariga qaysilar kiradi?
  - A) Boshlang‘ich va tayanch maktablar.
  - B) Kasb-hunar kollejlari, litseylar.
  - C) Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang‘ich maktab, tayanch maktablari, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, oliy o‘quv yurtlari.
  - D) O‘rta maxsus o‘quv yurtlari.
2. Har bir dars nimalar asosida tuziladi?
  - A) Ta’lim tamoyillari asosida.
  - B) Reja asosida.
  - C) Ta’limiy va tarbiyaviy vazifalar hamda ta’lim tamoyillari asosida.
  - D) Tá’limiy vazifalar asosida.
3. Dars nima?
  - A) Ta’limiy vazifalarni amalga oshiruvchi jarayon.
  - B) O‘quvchilarga o‘quv fanini tizimli bayon etishga imkon beruvchi jarayon.
  - C) Didaktik maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida doimiy o‘quvchilar jamoasi bilan aniq belgilangan vaqtarda, jadval asosida mashg‘ulot olib borish.
  - D) O‘quvchilar jamoasining bilish faoliyatida rahbarlik qilish uchun tashkil etiladigan ish shakli.
4. Bilimlarni tekshirish turlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
  - A) Joriy, yakuniy va tematik.
  - B) Chorak, mustaqil.
  - C) Frontal tekshirish.
  - D) Individual tekshirish.

shakllantirishga, shuningdek o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasi .**Kasbiy bilim** - aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan islar uchun zarur bo‘lgan nazorat, bilim amaliy malaka va ko‘nikmalar birlashmasidir.

**O‘qitishni individuallashtirish** - ta’lim mazmunini oquvchi shaxsi, uning individual xususiyatlarga mosligi. Pedagogik kvalimetriya-pedagogic jarayon sifat darajasining o‘lchovi.

**Kasbiy tayyorgarlik** - maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar ,shuningdek, ma’naviy-axloqiy, kasbiy sifatlarini o‘zlashtirish asosida shaxsning muayyan kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

### Xulosa

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etish asosida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish talabalarning ijtimoiy- siyosiy dunyoqarashi axloqiy – huquqiy madaniyatini va siyosiy tafakkurini va bu orqali faol fuqarolik kompetensiyasini mustaxkamlovchi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘lotlari texnologiyasini yaratish zarurligini talab etadi. Bu muammolarni hal etish maqsadida o‘quv mashg‘lotlarini innovatsion yondashuv asosida olib boorish, talabalarga huquqiy tarbiya asosida faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv mashgulotlari modeli va texnologiyalarini tuzish, amaliyotga joriy etish amaliyotini o‘tkazish zarurligini taqazo qiladi. Ushbu qo‘llanmada keltirilgan zamonaviy pedagogic texnologiyalar to‘grisidagi ma’lumotlar pedagoglarning shu yonalishdagi bilimlarinioshirishga yo‘naltirilgan. Bu ma’lumotlar bilan tanishish natijasida zamonaviy pedagogic texnologiyalar uzlusiz rivojlanib, o‘zgarib borayotganligini hisobga olgan holda, har bir pedagog xodim bu sohadagi o‘z nazariy bilimlarini hamda kasbiy pedagogic mahoratini oshirib borishi zarur hisoblanadi

Bu interfaol texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Elpig‘ich” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

Bu texnologiya mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘lla-nilishi mumkin:

- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
  - mavzuni o‘rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur faxmlash va anglab yetish;
  - yakunlash bosqichida: olingen bilimlarni tartibga solishda.
- Asosiy tushunchalar quyidagilar:

**Aspekt** (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

**Afzallik** – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

**Fazilat** – ijobiy sifat.

**Nuqson** – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo‘yicha dalildan natijaga kelish.

Ta’lim berish bilan birga bu texnologiya tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa, guruhlarda ishlash mahorati; muammolar, vaziyatlarni turli

nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati; murosali qarorlarni topa olish mahorati; o‘zgalar fikriga hurmat; xushmuomalalik; ishga ijodiy yondashish; faollik; muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

### “Tushunchalar tahlili”

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo‘yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda ko‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Konstruktivli-** (loihalay olish qobiliyatiga egalik)- bu pedagogning shaxsiy faoliyati va tarbiya maqsadlarini hisobga olgan holdagi faolliklarini alohida loyihalashtirishni ko‘zda tutadi.

**Metod-1.** tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish bilish usuli, harakat qilish tarsi; 2. Maqsadga eltuvchi yol , ya’ni maqsadga erishish yo‘lidagi hatti-harakatlarning o‘ziga xosligidir.

**Model-** (fransuzcha “modele”-“namuna” lotin tilida “modulus” - me’yor)qandaydir ob’ektning shartli qiyofasi,ob’ekt va ob’ekt haqidagi inson bilimlari o‘rtasidagi munosabatni aks ettirish uchun hizmat qiladi.

**Pedagogik jarayon-** ta’lim masalalari uning taraqqiyotini kashf qilishga qratilgan, mahsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

**Pedagogik texnologiya-** ta’lim oluvchining ichki imkoniyat va o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta’limiy maqsadga erishishni kafolotlovchi o‘quv- tarbiya jarayonining loyihasi.

**Pedagogik texnologiya-** ta’limoluvchining ichki imkoniyatlari va o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta’limiy maqsadga erishishni kafolotlovchi o‘quv- tarbiya jarayonining loyihasi.

**Ta’lim-** maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan kishilar rahbarligida o‘tkaziladigan , ta’lim oluvchilarni bilim,ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarni o‘sirib,dunyoqarashlarni tarkib toptiruvchi jarayon.

**Trening-** tahsil oluvchi faoliyatiga mo‘jallangan ta’lim shaklibo‘lib nazariy ma’lumotlarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. U ta’lim beruvchi tomonidan o‘qitishni emas,balki tehsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o‘rganishni ko‘zda tutadi.

**Innovatsiya** - yangilik, yangi g‘oyani kiritish. Interfaol metod- (“inter” o‘zaro va “akt” harakat qilmoq) o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini o‘quv axborotlarini o‘zlashtirish jarayonidagi faollikni ijodkorlik mustaqillikni

## “Ikki qismli kundalik”

Ikki qismli kundaliklar talabalarga matn mazmunini o‘z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog‘lash, o‘zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, talabalar qandaydir katta matnni uyda, o‘quv auditoriyasidan tashqari o‘qib chiqish topshirig‘ini olishganida ikki qismli kundaliklar foydalidir.

Ikki qismli kundalik uchun talabalar yozilmagan qog‘ozning o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog‘ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg‘otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg‘otar. O‘ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima narsa majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyg‘otdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug‘ildi? Qisqasi, matnni o‘qirkan, o‘quvchilar vaqtı-vaqtı bilan to‘xtashlari va o‘zlarining qo‘shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo‘yib borishlari kerak.

## GJOSSARIY-

**Kommunikativlik**- bu o‘qituvchining alohida xususiyati bo‘lib, unda o‘quvchilar va hamkasblari bilan o‘zaro hamkorlik muloqati nazarda tutiladi. Bunda pedagogic faoliyatning samaradorligi uning muloqatchanligiga bog‘liq bo‘ladi.

**Kompetentlik**- shaxsnинг o‘zlashtirgan muayyan bilim, ko‘nikma va tajribasini ijtimoiy –kasbiy sohadagi aniq vaziyatlarda muammo va vazifalarni yechishga qodirlik darajasi, yaroqliligi.

## “Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

TEST	MUAMMOLI VAZIYAT
BELGILARI:	AMALIY KO‘NIKMALAR:

## «T» - Chizma

«T» – **chizma** – ma’lum bir masalani ikki tomonlama taqqoslash asosida tahlil qilish uslubidir. Juft (ijobiy - salbiy; ha - yo‘q; rozi - qarshi kabi) javob yoki taqqoslashlarni qayd etuvchi serqirra yozma ishni tashkil etishda, ko‘maklashuvchi usuldir. Misol uchun:

### Taklif etilayotgan model


Ijobiy tomonlari	Salbiy	
------------------	--------	--

### «Baliq skeleti»

Baliq suyagi (Isikava modeli) – grafik tashkilotchi, bir qancha muammolarni yoritish va hal qilishga urinib ko‘rish imkonini beruvchi, muammoni qo‘yish va hal qilish modeli.

Ta’lim oluvchilar biror-bir mavzuni o‘rganyaptilar deb tasavvur qilamiz. Ishdan so‘ng, ular qandaydir muammo to‘g‘risida Baliq suyagi (Isikava modeli) – grafik tashkilotchi, bir qancha muammolarni yoritish va hal qilishga urinib ko‘rish imkonini beruvchi, muammoni qo‘yish va hal qilish modeli.

Ta’lim oluvchilar biror-bir mavzuni o‘rganyaptilar deb tasavvur qilamiz. Ishdan so‘ng, ular qandaydir muammo to‘g‘risida fikr yuritilgan matnni o‘qiydilar. Matnda turli yondashuvlar muhokama qilinyapti, ularning yuzaga kelishining ba’zi sabablari va rivojlanish mexanizmlari ochib berilgan. O‘qish davomida ular “Fishboun” (“baliq suyagi” deb tarjima qilinadi) sxemasi bilan ishlaydilar.




1) Ushbu skeletning “bosh” qismida ular matnda ko‘rilayotgan muammoni qo‘yishadi. Skeletning o‘zida yuqori va pastki suyaklari mavjud.

2) Yuqoridagi suyagida ta’lim oluvchilar o‘rganilayotgan muammoning kelib chiqish sabablarini ko‘rsatadilar.

3) Yuqoridagi suyaklarning qarama-qarshisida pastkilari joylashgan, ularda ta’lim oluvchilar o‘qish davomida o‘zlari ko‘rsatib o‘tgan sabablarni tasdiqlovchi dalillarni yozadilar. Yozuv-lar qisqa,

### “Venna diagrammasi” yordamida an’anaviy va zamonaviy

#### o‘qituvchi vazifalarini tasniflang



#### «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim»

Ushbu metod tahsil oluvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida tahsil oluvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlarini quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg‘ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo‘yicha umumlashtiriladi;

guruhrar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O‘quv faoliyati bevosa yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

## “Venn diagrammasi”

**Venn Diagrammasi** (ingliz faylasufi Djon Venn nomi bilan atalgan).

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orkali o‘qitishni tashkil etish shakli bulib, u ikkita uzaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalananadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali kurib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jixatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalgaloshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga kurib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jixatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqini) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Masalan, ekologik muammolar to‘g‘risida fikr bildirilayotgan bo‘lsa, ularning mavjudligini va dolzarbligini tasdiqlovchi aniq ma’lumotlarga suyanish muhimdir. Dalillar mavhum fikrlash to‘g‘risida emas, balki aniq mexanizm to‘g‘risida gapirishga imkon beradi.

4) Ish (izlanish) individual yoki guruhlarda o‘tkazilishi mumkin. Muammolarning o‘zaro aloqasi, ularning umumiy xususiyatini namoyon etuvchi to‘ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

Fikr yuritilgan matnni o‘qiydilar. Matnda turli yondashuvlar muhokama qilinyapti, ularning yuzaga kelishining ba’zi sabablari va rivojlanish mexanizmlari ochib berilgan. O‘qish davomida ular “Fishboun” (“baliq suyagi” deb tarjima qilinadi) sxemasi bilan ishlaydilar.

1) Ushbu skeletning “bosh” qismida ular matnda ko‘rilayotgan muammoni qo‘yishadi. Skeletning o‘zida yuqori va pastki suyaklari mavjud.


2) Yuqoridagi suyagida ta’lim oluvchilar o‘rganilayotgan muammoning kelib chiqish sabablarini ko‘rsatadilar.

3) Yuqoridagi suyaklarning qarama-qarshisida pastkilari joylashgan, ularda ta’lim oluvchilar o‘qish davomida o‘zlari ko‘rsatib o‘tgan sabablarni tasdiqlovchi dalillarni yozadilar. Yozuvlar qisqa, mazmun va dalillarni ifodalovchi kalit so‘zlar va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Masalan, ekologik muammolar to‘g‘risida fikr

bildirilayotgan bo'lsa, ularning mavjudligini va dolzarbligini tasdiqlovchi aniq ma'lumotlarga suyanish muhimdir. Dalillar mavhum fikrlash to'g'risida emas, balki aniq mexanizm to'g'risida gapirishga imkon beradi.

4) Ish (izlanish) individual yoki guruhlarda o'tkazilishi mumkin. Muammolarning o'zaro aloqasi, ularning umumiyligi xususiyatini namoyon etuvchi to'ldirilgan sxemaning taqdimoti muhim bosqich hisoblanadi.

### **"Nima uchun?" metodi**



«Klaster» metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga riosa qilib talab etiladi: Nimaniki o'yangan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing; Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring; Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to'xtamang; Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'lay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring; Yozuvningizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang; Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. g'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

### **"SWOT" metodi**

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

#### **SWOT – tahlili**

- S-kuchli tomoni
- W- kuchsiz tomoni
- O- imkoniyatlari
- T- xavf-xatar

qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad tahsil oluvchilarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bermalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqlar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning tahsil oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan tahsil oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda tahsil oluvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqlarni topish imkoniyatini yaratadi.

### **“Chalkashtirilgan mantiqoy zanjirlar ketma-ketliklar”**

Masalan, “Ta’lim metodlari” mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, talabalardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

1. Mashq
2. Hikoya
3. Videometod
4. Munozara
5. Didaktik o'yinlar
6. Laboratoriya metodi
7. Suhbat
8. Tushuntirish
9. Ma'ruza
10. Kitob bilan ishlash
11. Illyustratsiya
12. Demonstratsiya

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy

### **«Aqliy hujum»**

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobjiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim: Tahsil oluvchilarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish; g'oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish; muammo (yoki mavzu)ni aniqlash; mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash; bildirilayotgan g'oyalarning ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish; qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish; bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash; boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik; yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik;

tahsil oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi; tahsil oluvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi; g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi; boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning tahsil oluvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi.

Dars jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- 1.Tahsil oluvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.
2. Har bir tahsil oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.
3. Har bir tahsil oluvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.
- 4.Mashg'ulot jarayonida tahsil oluvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Ularning fikrlari baholanib borilsa, tahsil oluvchilar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni